

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA YANGI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI
(GEOGRAFIK BOSHQOTIRMA)**

Xamroyeva Feruza Asrorovna

Sharof Rashidov nomidagi O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
pedagogika fanlari falsafa doktori, dosent

Davronova Mavjuda Akmal qizi

Sharof Rashidov nomidagi O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
E-mail: mavjudadavronova1996@gmail.com

ANNOTATSIYA

Geografiya darslarida yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali dars samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin. Mazkur maqolada Geografik bilimlarni yanada oshirish maqsadida yangi “Geografik boshqotirma” innovatsion texnologiyasi keltirilgan. Hususan, maqolada “Geografik boshqotirma” texnologiyasining maqsad va vazifalari, dars jarayonida qo‘llanilish usullari hamda natijalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, texnologiya, shartli belgi, “geografik boshqotirma”, metod.

**METHODS OF USING NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN
GEOGRAPHY LESSONS (GEOGRAPHIC PUZZLE)**

Khamroyeva Feruza Asrorovna

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute named after Sharof Rashidov,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

Daughter of Davronova Mazhuda Akmal

Master's of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute named after Sharof Rashidov

ABSTRACT

By using new innovative technologies in geography lessons, it is possible to maximize the effectiveness of the lesson. This article presents the new innovative technology "Geographic puzzle" in order to further improve geographical knowledge. In particular, the article describes the goals and objectives of the "Geographic puzzle" technology, methods and results of its use in the course of the lesson information is provided

Keywords: innovative technologies, conditional symbol, "Geographic puzzle" ', method

Kirish

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimi va uning samaradorligini yana oshirish maqsadida muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yangi islohatlar olib borilmoqda. Ayniqsa, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlarning qabul qilinishi natijasida ta’lim sohasidagi ishlarda keng ko‘lamga erishildi. Bu hujjatlar asosida barcha ta’lim muassasalarida ta’limga et‘bor kuchaydi, bu esa ta’lim-tarbiya jaayoniga yangicha uslub va yondashuvlarning kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Yosh avlodni bilib olishlarini yanada qulaylashtirish, bilimlarni tez va oson o‘zlashtirishlari hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishni bilishlari uchun yangidan yangi inoovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish davom etmoqda.

Asosiy qism

Mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi bo‘lgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jiddiy masalalardan biri hisoblanadi. Bunda o‘qituvchilar ta’lim oluvchilar oldida o‘ta e’tiborli bo‘lishlari va ta’lim jarayonini sinchkovlik bilan kuztishlari talab

etiladigan katta bir mas’uliyat hamda vazifalar turadi. Mana shunday kadrlarni tayyorlash bilan bog‘liq joriy va istiqboldagi vazifalar quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalariga sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatanning jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

Ikkinchiidan, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma'nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmog'i kerak;

Uchinchiidan, yosh avlod milliy istiqloq g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zarurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim. [1, 48-b].

Mana shunday kelajak yoshlarini bilimlarni chuqur egallashlari uchun yaratilayotgan yangi innovatsion texnologiyalardan biri bo'lgan “Geografik boshqotirma” metodini geografiya darslarida qo'llanilish usullarini ko'ramiz.

Texnologiyaning tavsifi

Ushbu texnologiya o'quvchilarga asosan xaritalar va atlaslarda qo'llaniladigan turli shartli belgilarni o'rganish, shartli belgilar haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni eslab qolish hamda o'zaro aloqasini tushunish, anglash, bir-biriga bog'lay olishga yordam beradi.

Texnologiyaning maqsadi: “Geografik boshqotirma” texnologiyasini qo'llashdan maqsad o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash, ko'plab fikrlar orasidan kerakligini tanlab olish va bir biriga bog'lashni o'rgatadi. Shuningdek

o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, guruhlarda ishlashga o‘rgatadi, mustaqil fikrlash va o‘z fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

Texnologiyaning qo‘llanilishi: Biz bu texnologiyani xaritalar yoki atlaslar bilan ishlash jarayonida avval o‘rganilgan shartli belgilar asosida dars boshida takrorlar sifatida yoki dars yakunida mustahkamlash uchun qo‘llash mumkin. Shu bilan birga ochiq darslarda yoki darsdan tashqari ham har bir o‘quvchi o‘zi mustaqil holda amaliy mashg‘ulot sifatida qo‘llashi mumkin.

Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: rangli qalamlar yoki flamasterlar, tarqatma materiallar

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

1. O‘quvchilarni guruhlariga ajratish (2-4 guruhlariga ajratish mumkin) (1 minut)
2. O‘quvchilarni mashg‘ulot o‘tkazishdagi qonun-qoidalar bilan tanishtirish. (1 minut)
3. Tarqatma materiallarni guruhlariga tarqatish (10 sekund)
4. Har bir guruh mashg‘ulotni mustaqil bajaradi (2 minut)
5. Mashg‘ulot tugallangandan keyin tarqatmalar yig‘ib olinadi, har bir tarqatma materiallarga guruhlar nomini yozib qo‘yadi. (5 sekund)
6. Har bir guruh bajargan mashg‘uloti o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar bilan birgalikda tekshiriladi. (4-8 minut)
7. Mashg‘ulot yakunida bajarilgan vazifalarga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan har bir guruhga rag‘batlantirish beriladi yoki ballar asosida belgilab qo‘yiladi. (2 minut)

Misol. O‘quvchilar tog‘ga borishi kerak. Buning uchun qulay yo‘lni tanlagan holda shartli belgilarni bir-biriga bog‘lab yo‘l topamiz.

Dastlab, turar joy binolaridan katta yo‘lga ya‘ni shossega chiqamiz undan tuproq yo‘l orqali mevali bog‘ ichidan so‘qmoq yo‘ldan yuramiz so‘ng, ko‘l bo‘ylab yurib

botqoqlikka duch kelamiz, botqoqlikdan o‘tib qamishzor yoqalab buloqqa kelamiz, buloqdan o‘tib qumliklar orqali yurib jarlikka kelamiz, jarlikdan o‘tib tog‘ga yetib boramiz.

Xulosa

Ko‘plab yangi innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga katta yordam beradi. Shu jumladan, “Geografik boshqotirma” texnologiyasini ham dars jarayonida qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bunda biz ushbu texnologiyani qo‘llash orqali o‘quvchilarda: geografik bilimlarni tez va oson o‘rganishlari, xaritalar va ularning shartli belgilari haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishlari, xaritalarni tez va oson hamda qiziqarli tarzda o‘rganishlari, dunyoqarashining kengayishi, fikrlash qobiliyatining o‘sishi kabi yutuqlarga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti. - T.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 b.
2. 5-sinf atlas. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi. Toshkent 2021
3. 6-sinf atlas. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi. Toshkent 2021
4. 7- sinf atlas. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi. Toshkent 2021